

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

2-son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	TAHRIRIYAT	
	4	Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati
	TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
N.Abdullayeva	5	Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida
A.Rasulov	10	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi
D.Axmadjonov	13	Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish
T.Sultanov	17	Ilk boshlang'ich ta'lim pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari
S.Toshboyev	21	Ta'limda innovatsiyalar va ularning tahlili
	TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI	
J.Ravshanov	25	O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
K.Abdullayev	27	Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
H.Bakiyeva	31	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish
M.Mamadjanova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash
G'.Nabiyev	38	Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
Z.Umarova	40	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi
D.Ismoilova	44	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar
	TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT	
Sh.Qo'qonboyeva	47	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash
	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
R.Musurmonov A.Suyarov	52	Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari
F.Maxmudova	56	Ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida
D.Ximmataliyev B.Xayridinov	59	Masofaviy ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati
S.Qorayev N.Tirkashev	62	Kompetensiyaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida sifat uyg'unligining asosi
A.Abdullayev	65	Professional ta'lim tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish
I.Qodirov	68	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish

S.Akbarova	71	Kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash
Y.Sultanov	76	3D texnologiyasi asosida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" fanini o'qitishning metodikasini takomillashtirish
	MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
B.Narzullayeva	80	Millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirishda mahallaning o'rni
S.Muxammadiyeva	83	Talabalarni tarbiyalashda Ahmad Yassaviyning e'tiqod tarbiyasi haqidagi fikrlaridan foydalanish
	TA'LIMDA MENEJMENT	
F.Jumanova	87	Yangi O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mazmuni
	HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA	
M.Jo'raxo'jayev	90	Imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibdagi ta'limni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari
	MAKTABGACHA TA'LIM	
G.Nazirova V.Ganiyeva	95	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari
D.Ganiyeva	99	Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda intellektual o'yinlarning ahamiyati
S.Achilova	103	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari
D.Xalkuziyeva	107	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari
G.Mo'minova	110	Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'yinning ahamiyati
Sh.Ibragimova	114	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish sohalar
F.Abdug'opirova	119	Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida
	PSIXOLOGIYA	
N.Abdullayeva	124	O'smir o'quvchilarda mustaqillik fenomeni va uning konformlilik orqali tushuntirilishi
	QIYOSIY PEDAGOGIKA	
K.Abrorxonova D.Yunusova	127	O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Finlandiya tajribasidan foydalanish istiqbollari
	СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	
Г. Тожибоева	131	Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов вопросах развития речи школьников
	МЕНЕЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ	
A. Margupov	138	Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителя

Akbar RASULOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM KLASSTERI SHAROITIDA IQTISODIYOT BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHNING ZARURLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fanini o'qitishning samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Zamonaviy, ta'lim, muhit, o'quvchi, pedagogik, o'qituvchi, iqtisodiyot ta'limning ilmiy bo'lishi, ta'limda nazariya bilan amaliyoti, ta'limdagi ongillik, faol harakat, ta'lim jarayonini ko'rsatmasi, bilimlarni puxta olish, ta'lim jarayoni, tizimni demokratlashtirish, insonparvarlik.

В данной статье представлены предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов эффективного использования предмета "Основы экономических знаний" в условиях современного образовательного кластера в общеобразовательных школах.

Ключевые слова. Современность, образование, окружающая среда, ученик, педагогика, научность экономического образования, соотношение теоретического и практического в образовании, осознанность в образовании, активное движение, ориентация на процесс образования, овладение знаниями, процесс образования, демократизация системы, гуманизм.

This article presents suggestions and recommendations for improving the mechanisms of effective use of the subject "Fundamentals of Economic Knowledge" in the conditions of a modern educational cluster in secondary schools.

Key words. Modernity, education, environment, student, pedagogy, scientific nature of economic education, the ratio of theoretical and practical in education, awareness in education, active movement, orientation to the process of education, mastery of knowledge, the process of education, democratization of the system, humanism.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bozor iqtisodiyoti tomon dadil kirib bormoqda. Bu iqtisodiyotning muhim sharti aholining, ayniqsa yosh avlodning savodxonligini oshirish, ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bo'lib qolmoqda. Davr iqtisodiy tafakkurga ega bo'lgan, dunyoga yangi-chi nuqtai nazar bilan qaraydigan yoshlarni talab qilmoqda. Shu bois iqtisodiyotning tushunchalari, qonun-qoidalarini, uning sir-asrorlarini yoshlarga o'rta ta'lim maktabi davridanoq singdirib borish zarur.

Darslarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlardan ham foydalanish, ya'ni masalalar, mashqlar, testlar yechishdan foydalanish ham o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala, masalalardan foydalanish metodining tutgan o'rnini.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq yechish egallaydi. Sababi:

1) masala, masq yechishni mukammal bilish, olgan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini beradi;

2) masala, mashq yechish orqali o'quvchilarning bilim olishdagi faolligi ortadi;

3) masala mashq fikrlashga o'rgatadi. Shuning uchun ham masalaga faqat topshiriqni hisob kitob asosida bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish obyekti sifatida qaratilishi bejiz emas.

Masala yordamida fanni o'rganganda aniq raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng. Undan tashqari modellashtiruvchi o'yin, kichik guruhlariga bo'lish, konkurs o'tkazish va boshqa metodlar asosida dars o'tishda ham masala, mashqlardan keng foydalanish imkoniyati katta.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlardagi mashqlar o'quvchilarning mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish bilan birga kam vaqt sarflashga, ayrim masalalarda ikkilanib turgan o'quvchilarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi.

Masala, mashq yechish jarayonida o'quvchilarning qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo'llashda ham keng foydalansa bo'ladi. Masala, mashqlar o'quvchilar bilimini sinashda ham eng qulay metod. Masala, mashqlardan fanni o'rgatish uchun tarqatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin. Ulardan darsda foydalanish turli interaktiv metodlarni qo'llab dars o'tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta.

Masala, mashqlardan foydalanib darsni tanlov o'tkazish shaklida tashkil etish mumkin. Bunda teng kuchli masala mashqlar tayyorlanib, kichik guruhlariga, juftlik yoki individual tarzda yechishga qarab darsda qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi. Masala, mashqlar murakkabligi jihatidan tabaqalashgan holda tuzilib, o'quvchilarning salohiyatiga ko'ra beriladi. Natijada, murakkab masalani yecholmay hafsalasi soviydigan o'quvchilarni ham darsga, o'rganilayotgan mavzuga diqqatini qaratish mumkin.

Xullas, masala, mashqlar bir tomondan sinalgan, qadimiy dars o'tish uslubi bo'lsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlari nihoyatda ko'pligi tufayli eskirmaydigan, doimo zamonaviy, uchinchi, universal, barcha iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan metoddir. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda bu metod, shubhasiz, nihoyatda katta ustunliklarga ega, ya'ni:

1. Masalalardan foydalanish amaliyot yo'nalishiga ega bo'lgan uchun mavzuni o'rganish va o'quvchilar bilimini nazorat qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning bilimini nazorat qilishda imkoniyati katta.

2. Masala mavzusi uchun har qanday vaziyatni tanlash mumkin. Masalalar o'quvchilar bilimini butun dastur bo'yicha nazorat qilish, shu bilan birga, asosiy yoki qiyin kategoriyalar yoki mavzularni tushunishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

3. Masalalarning muntazam yechib turilishi hamda uni muhokama qilish o'quvchilarning olgan bilimini uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushunib olish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarning puxta bilim olishlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishlarining eng samarali metodlaridan biri masala va mashqlardan foydalanish qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rib chiqdik. O'qituvchi masala va mashqlarni o'quv jarayonida turli shakllarda ishlatishi mumkin.

Masala va mashqlar hisob kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchilarning aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi. Chunki, iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda, ko'pincha, ilmiy abstraktsiyadan foydalaniladi. Ko'pchilik o'quvchilar ilmiy abstraktsiya metodini tezda tushunishmaydi.

Masala va mashqlardan nazariy darslarda foydalanishga ikki nuqtayi nazardan

yondashish mumkin:

a) umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlaridagi iqtisodiy va nazariy jihatdan o'rganadigan fanlar: “Iqtisodiy bilim asoslari”, “Iqtisodiyot asoslari” oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi” fanlarini o'rganishda masala, mashqlardan foydalanish.

b) barcha iqtisodiy fanlardan nazariy dars o'tishda masala, mashqlardan foydalanish. Masala, mashqlar uchun quyidagi qoidalar umumiy hisoblanadi.

1. Nazariy darslarda masala, mashqlardan foydalanish me'yorini bilish zarur. Masala, mashqlardan keragidan ortiq foydalanilsa, nazariy masalalarni yoritishda vaqt yetmay qoladi.

2. Ma'ruza darsi ushuncha qisqa vaqtda yechiladigan masala tuzgan yoki tanlagan ma'qul.

3. Ma'ruzaga qo'yilgan masala, mashqni oxirigacha yechish shart emas. Ba'zan masala mashqni ma'ruza jarayonida boshlab, mustaqil ravishda davom ettirishni o'quvchilarga topshirish mumkin. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi masala, mashqni doskada yoki og'zaki shaklda yechishi mumkin. Ularni oldindan ko'rgazmali qurol yoki tarqatma material sifatida tayyorlanadi. Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirib borishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi, o'quvchilarga individual yondashishning imkoniyati keng. Ularda u yoki bu turdagi qiyinchilik kelib chiqsa, o'qituvchining tushuntirishi, ayrim nazariy qoidalarni aniqlashtirishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi orqali tezda yordam berib yuborishi mumkin bo'ladi.

Har bir o'quv fanini o'qitish fanni o'rganishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari haqidagi fan ma'lumotlari asosida quriladi, bu fan o'qitish uslubiyati deb ataladi. Iqtisodiyot fanini o'qitish uslubiyati shu fanning o'ziga xos tomonlarini va o'quvchilarni yosh xususiyatlarini e'tiborga oladi. U yana shu bilim yurtlaridagi o'qitishning vazifasi, mazmuni, metodlari va uni tashkil etish formalari bilan bog'liq bo'lgan o'z xususiyatlariga egadir. Ta'lim berish ikki tomonlama jarayondir, u o'qituvchining faoliyati, o'quv materiallarining bayon qilishdan o'quvchilardan fanga qiziqishini, fikrlar va e'tiqodini tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashdan iborat. Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlar tufayli harakatlarining ayrim bosqichlari va ularni ketma ketligi tushunarli bo'ladi.

Ko'nikma – kishining ma'lum bir harakatni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir, bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi. Ular amaldagi bilimlardir. Ko'nikmalarning turlari juda ham xilma xildir. Malaka-mashq qilish yo'li bilan hosil bo'ladigan ish-harakatdir. Mashq qilish natijasida, o'qish, o'rganish va idrok etish, xilma-xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. -2.-b.
2. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T.. Biologiya ta'limi texnologiyalari. – T.: O'qituvchi, 2002.
4. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: Moliya-iqtisod, 2007.